

QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARIDAN OQILONA FOYDALANISH VA ULARINING MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASH

Mustafoeva Shoiri O‘ktam qizi

Navoiy Davlat Universiteti

Tabiiy fanlar va Tibbiyot fakulteti

Geografiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda mamlakatimizda yerlarning meliorativ holatini yaxshilash qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan oqilona foydalanishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan oqilona foydalanish va ularining meliorativ holatini yaxshilash borasidagi ilmiy va amaliy ishlar tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Melioratsiya, qishloq xo‘jaligi, iqlim, tuproq, sizot suvlar, degradatsiya, dala, tuproq unumdorligi.

РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЗОВАНИЕ ЗЕМЕЛЬ СЕЛСЬКОХОЗЯЙСТВЕННОГО НАЗНАЧЕНИЯ И УЛУЧШЕНИЕ ИХ МЕЛИОРАТИВНОГО СОСТОЯНИЯ

Мустафоева Шоира Октам кызы

Навоийский государственный университет

Факультет естественных наук и медицины

Преподаватель кафедры географии

Аннотация: Сегодня улучшение мелиоративной ситуации в нашей стране имеет большое значение для рационального использования сельскохозяйственных угодий. В статье представлен анализ научно-практической работы по рациональному использованию земель сельскохозяйственного назначения и улучшению их мелиоративного состояния в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: Мелиорация земель, сельское хозяйство, климат, почва, грунтовые воды, деградация, поле, плодородие почвы.

RATIONAL USE OF AGRICULTURAL LANDS AND IMPROVEMENT OF THEIR MELIORATION STATUS

Mustafoeva Shoiri O'ktam qizi

Navoi State University

Faculty of Natural Sciences and Medicine

Teacher of the Department of Geography

Abstract: Today's improvement of the melioration situation in our country has great significance for the rational use of agricultural land. V state predstavlen analiz nauchno-prakticheskoi work po rationsionalnomu oспolзовaniyu zemel selskohozyaystvennogo naznacheniya i uluchsheniyu ix meliorativnogo stotoyaniya v Republike Uzbekistan.

Keywords: land reclamation, agriculture, climate, soil, soil, soil, degradation, soil, soil.

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, ularni asrash borasida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Jumladan;

O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi va "Yaylovlar to'g'risida"gi [Qonuni](#) hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son [Farmoniga](#) muvofiq, shuningdek, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanishning samarali tizimini joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori qiladi: Mazkur Nizom qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan (shu jumladan, yaylovlardan) oqilona foydalanish tartibini belgilaydi. Nizom O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining [36-moddasiga](#) muvofiq yerdan oqilona foydalanilmaganda, yer uchastkasiga bo'lgan huquqni bekor qilishning aniq holatlarini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

almashlab ekish (sideratsiya) — ma'lum vaqt davomida yer uchastkalari bo'yicha qishloq xo'jaligi ekinlarini ilmiy asoslangan holda navbatlab ekish; Almashlab ekish qishloq xo'jaligi yerlarining unumdorligini oshirish va meliorativ holatini yaxshilashda o'simlik qoldiqlari kasallik va zararkunandalarga qarshi tabiiy himoya hisoblanadi. Shuningdek, nafaqat dehoqonchilikda balki, chorvachilikda ham almashlab boqish yaylov unumdorligini oshirishda muhim o'rin tutadi [2]. Chunki almashlab boqish orqali yaylovlarda navbatma navbat ma'lum vaqt ichida o'simliklar qayta tiklanadi va tuproq unumdorligi oshishida asosiy o'rin tutadi.

Dala — qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalaniladigan hududlarda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish va yoki chorva mollarini boqish (o'tlatish) uchun foydalaniladigan alohida kontur raqami bilan belgilangan va alohida chegara belgilariga ega bo'lgan yer maydoni birligi hisoblanadi. Va'holnki dalalarning unumdorligini saqlash va barqaror rivojlanishini ta'minlash qishloq xo'jaligining asosiy vazifasi sanaladi.

Yerlar degradatsiyasi — yerlarning tabiiy-xo'jalik ahamiyatining pasayishiga olib keluvchi tabiiy va antropogen ta'sirlar natijasida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar holatining yomonlashishi. Ya'ni bir xil ekinlarning uzoq muddat ekilishi hamda tuproq qatlamini noto'g'ri sug'orilishi natijasida tuproqning unumdorligi pasayishiga olib keladi. Bu esa butun dunyoda oziq-ovqat xavfsizligiga suv resurslariga va atrof muhitga ta'sir qilmoqda hamda dolzarb muommoga aylanmoqda.

Tuproq unumdorligining sezilarli pasayishi — tuproq sifatini baholash, agrokimyoviy va yoki agromeliorativ tadqiqotlar natijalari taqqoslanganda, tuproq unumdorligi ko'rsatkichining pasayishi hisoblanadi. Tuproq unumdorligining pasayishiga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatmoqda tabiiy omillardan eroziya (yomg'ir va shamol ishi), iqlim o'zgarishi va qurg'oqchilik, sho'rlanish va botqoqlashish noto'g'ri dehqonchilik amaliyotlari va agrotashkilotlarning mavjud emasligi bunga sabab bo'lmoqda.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan oqilona foydalanish — yer maydonlarida tuproq unumdorligining pasayishi va meliorativ holatining yomonlashishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda mahsuldorlikning zarur ko‘rsatkichlariga erishish maqsadida yerdan foydalanuvchilar tomonidan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan (shu jumladan, yaylovlardan) oqilona foydalanishni ta‘minlanishi sanaladi. Qishloq xo‘jaligi yerlaridan unumli foydalanishning bir qancha chora tadbirlari mavjud: jumladan, almashlab ekish, organik va mineral o‘g‘itlardan oqilona foydalanish, eroziyaga qarshi kurashish choralari, hosildor ekinlarni ekish, sho‘rlanishga qarshi kurashish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“Melioratsiya” lotincha melioration –“yaxshilash” degan ma‘noni anglatib, ma‘lum maydonda qishloq xo‘jaligi ekinlaridan doimiy yuqori hosil olish maqsadida shu maydonning noqulay tuproq, geologik, gidrogeologik va iqlim sharoitlarini yaxshilash tushuniladi. Qishloq xo‘jaligi melioratsiyasi deganda ekinlardan yuqori, barqaror hosil olish maqsadida tuproqning hosildorligini oshirish va noqulay tabiiy sharoitlarni tubdan yaxshilashga yo‘naltirilgan , texnik, tashkiliy xo‘jalik va ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar majmuasi tushuniladi. Melioratsiya qishloq xo‘jaligi rivojlanishiga faol ta‘sir qiladi, inson hayoti va faoliyatini yaxshilashga yordam beradi.

Respublikamiz uchun o‘ta dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan sug‘oriladigan yerlar 4,3 million gektarni, yoki mamlakat umumiy maydonining 9,6 foizini tashkil etib, ularda barcha qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 95 foizdan ortig‘i yetishtiriladi. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha jami yerlar 44892,4 ming gektarni tashkil etib, yerlardan foydalanish maqsadi va tartibiga ko‘ra 8 ta toifaga bo‘linadi, jumladan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar; aholi punktlarining yerlari; sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar; tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar; tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar; o‘rmon fondi yerlari; suv fondi yerlari; zaxira yerlar. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar unumdor yerlarga taalluqli bo‘lib, umummilliy boylik, qishloq xo‘jaligi

mahsulotlarini ishlab chiqarish va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning umumiy maydoni 20236,3 ming gektarni, shundan haydaladigan yerlar 3988,5 ming gektarni, ko'p yillik daraxtzorlar 383,1 ming gektarni, bo'z yerlar 76 ming gektarni, pichanzor va yaylovlar 11028,3 ming gektarni, boshqa yerlar 4760,4 ming gektarni tashkil qiladi. So'nggi yillarda O'zbekistonda yer va suv resurslariga bo'lgan munosabatni maqbullashtirish, qishloq xo'jaligi yerlarini takomillashtirish va ularni ajratishda soddalashtirilgan tartibini qo'llash, yer-suv resurslaridan foydalanishda zamonaviy bozor mexanizmlari, innovatsion va resurs tejovchi texnologiyalardan foydalanishni joriy qilish, past hosil beradigan paxta va g'alla maydonlarini qisqartirish hisobiga yuqori daromadli, eksportbop mahsulotlar yetishtirish bo'yicha bir qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, respublika aholisi sonining yuqori sur'atlar bilan o'sib borishi, qishloq xo'jaligi yerlarining boshqa toifaga o'tkazilishi va global iqlim o'zgarishi ta'sirining keskinlashuvi oqibatida oxirgi 15 yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan yer maydonlari o'lchami 24 foizga (0,23 gektardan 0,16 gektargacha), o'rtacha yillik suv ta'minoti darajasi esa 3 048 metr kubdan 158,9 metr kubgacha qisqardi. Uzoq yillar davomida qishloq xo'jaligi yerlaridan nooqilona foydalanish natijasida tuproqning tabiiy unumdorligi va ekinlar hosildorligi pasayib, yetishtirilgan mahsulot sifati yomonlashmoqda, atrof muhit ifloslanishi ortib bormoqda. Jumladan, sug'oriladigan ekin yerlaridagi tuproqlarning 93 foizida harakatchan fosfor miqdori, 68,3 foizida almashuvchan kaliy miqdori, 79,3 foizida gumus (chirindi) miqdori o'rtachadan past darajaga tushib qolgan. Milliy daromadi O'zbekiston bilan deyarli bir xil bo'lgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun davlat budjetining 4-5 foizi yo'naltiriladi yoki YAIMga nisbatan rivojlanayotgan mamlakatlarda 1 foizdan ortiqroqni, daromadi yuqori bo'lgan davlatlarda esa 1 foizdan kamroqni tashkil etadi. Qishloq xo'jaligida o'rtacha yillik suv sarfi 45696 mln metr kub yoki iqtisodiyot tarmoqlarida iste'mol qilingan suv resurslarining 90 foizini tashkil etib,

yuqoriligicha qolmoqda. Sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va barqaror saqlash maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda: irrigatsiya va melioratsiya obʻektlarini qurish va rekonstruksiya qilish hamda taʼmirlash-tiklash ishlarini amalga oshirib borish; yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda ilm-fan va amaliyot integratsiyasini jadallashtirish; yer va suv munosabatlari boʻyicha tor ixtisoslikdagi mutaxassislar tayyorlash boʻyicha yangi oʻquv yoʻnalishlari (geodeziya, kartografiya va h.k.) va fakultetlarini tashkil etish; shu jumladan yetakchi xorijiy oliy taʼlim muassasalari bilan qoʻshma fakultetlar ochish; ilmiy tadqiqot mavzularini hududlar va qishloq xoʻjaligining muammolari yechimlaridan kelib chiqqan holda shakllantirish va natijalarini tijoratlashtirish; tuproq unumdorligini oshirish, tuproq eroziyasi va degradatsiyasining oldini olishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni olib borishni jadallashtirish; qishloq xoʻjaligi yoʻnalishidagi ilmiy tadqiqotlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqish va joriy etishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmini, xususiy sektorning ishtirokini ragʻbatlantirishning samarali mexanizmlarini keng joriy qilish; xorijiy davlatlarning qishloq xoʻjaligi ekinlari serhosil navlari va chorva mollarining mahsuldor zotlari hamda turlarini mahalliyashtirish borasidagi ilmiy-amaliy faoliyat hamda hamkorlikni tizimli tashkil etish; soha boʻyicha doktorantura va tayanch doktorantura orqali ilmiy darajali yuksak malakali ilmiy xodimlarni tayyorlashni kengaytirish, ularga muammoli va dolzarb mavzular boʻyicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sugʻorish zonalarini, mintaqaning suv bilan taʼminlanganligini hisobga olgan holda qishloq xoʻjaligi ekinlarining sugʻorish texnika va texnologiyalarini takomillashtirish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqish; jahon amaliyotini oʻrgangan holda noanʼanaviy sugʻorish texnologiyalarini ishlab chiqish va tatbiq etish asosiy oʻrin tutmoqda.

Qishloq xoʻjaligi uchun moʻljallangan yerlardan oqilona foydalanish va meliorativ holatini yaxshilash uchun amalga oshirilishi zarur boʻlgan bir qator

chora tadbirlar; suv isrofini kamaytirish va yerlarning shoʻrlanishini oldini olish maqsadida tomchilatib va yomgʻirlatib sugʻorish texnologiyalarini joriy etish; ortiqcha suvni chiqarib, tuproq shoʻrlanishi va botqoqlanishini oldini olish uchun drenaj tizimlarni modernizatsiya qilish qishloq xoʻjaligi sohasini rivojlanishida asosiy oʻrin tutadi.

Xulosa qilib aytganda yuqorida bayon etilgan taklif va tavsiyalardan tashqari qishloq xoʻjalik mutaxassisarlari, irrigatorlar, melioratorlar, muxandislar va olimlar oldida ish samaradorligini yuqori takomillashgan yangi tipdagi zovurlar texnologiyasini yaratish, tuproq unumdorligini tiklash, oshirish va saqlash muhim oʻrin tutadi. Shuningdek, hamda shoʻrlangan yerlardan yuqori hosil olishni taʼminlovchi yanada samaraliroq meliorativ tadbirlarni joriy etish, tuproqda gumus balansi notanqisligini va tuproq suv-fizikaviy, fizik-kimyoviy, biokimyoviy, meliorativ xossalarni moʻtadilligini taʼminlovchi bir qator yangi tadbirlar yaratish va ularni ishlab chiqarishga tezda tadbiriq etish muammolarini birinchi galdagi vazifalardan boʻlib turibdi. Bu muammolar yechimini hal etish orqali koʻzda tutilgan maqsadlarga erishish mumkin.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5 dekabrda 969-sonli qarori (<https://lex.uz/acts/>)
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV Toshkent sh., 2017-yil 31-may, PF-5065-son
3. Latipov, N. (2022). НАВОЙИЙ ВИЛОЯТИДА АХ. ОЛИ САЛОМАТЛИГИГА ЭКОЛОГИЯНИНГ ТАЪСИРИ.
4. Latipov, N. F. (2024). THE PROCESS OF URBANIZATION AND ITS CORRELATION WITH THE ECOLOGICAL CIRCUMSTANCE. Science and innovation, 3(Special Issue 4), 343-352.
5. Латипов, Н. Ф. (2018). International migration tours and works. Наука и мир, (8), 108-110.

6. Komilova, N., Makhmudov, B., & Latipov, N. (2023). Study of crimes in the city of Kokand using GIS technologies and sociological questionnaires. Visnyk of VN Karazin Kharkiv National University, series" Geology. Geography. Ecology", (59), 125-139.
7. Latipov, N. F., & Komilova, N. K. (2022). INDICATORS OF URBAN ENVIRONMENT ASSESSMENT AND CRITERIA FOR THEIR SELECTION. Экономика и социум, (11-1 (102)), 129-134.
8. Mukhammedova, N. J., & Koziyeva, M. S. (2024). ECONOMIC-SOCIAL GEOGRAPHICAL DESCRIPTION OF NAVBAHAR DISTRICT. World of Scientific news in Science, 2(1), 619-623.
9. Khudoyberdieva, I. Analyzing of Influential Factors for the Development of Livestock and their Significance in Navoi Region.
10. Xudoyberdiyeva, I. (2024). Navoiy viloyati qishloq xo'jalik tarmoqlarini joylashtirishda iqtisodiy va ijtimoiy geografik omillarning o'rni. Tabiiy fanlar, 3(2), 315-318.
11. <https://lex.uz/acts/-1411495>
12. https://m.aniq.uz/uz/yangiliklar/qishloq_xujaligida_yer_va_suv_resurslaridan_samarali_foydalanish_holati
13. <https://st.simplehealth.ltd/uAJjyu>